



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot,
2024-yil yanvar-iyun*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 66-235-65-80*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



2024-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **11 432** ta bo'lib, shundan, yirik korxonalar soni **39** ta, kichik korxona va mikrofirmalar **11 393** tani tashkil etmoqda.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **13 889,3** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,8** % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **2 049,8** mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **11 839,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,9** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 405,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,0** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	13 889,3	107,8
Samarqand sh.	4 859,9	107,9
Kattaqo'rg'on sh.	565,4	107,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	336,6	108,7
Bulung'ur	891,6	109,1
Jomboy	494,9	107,8
Ishtixon	536,7	108,5
Kattaqo'rg'on	526,5	104,2
Qo'shrabot	273,0	106,9
Narpay	699,5	107,5
Payariq	426,0	108,1
Pastdarg'om	465,1	104,8
Paxtachi	252,9	107,7
Samarqand	1 581,5	108,2
Nurobod	216,5	107,8
Urgut	1 362,1	108,9
Toyloq	401,0	108,6


2024-yilning yanvar-iyun oylarida 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning Bulung'ur (**109,1** %), Urgut (**108,9** %), Oqdaryo (**108,7** %), Toyloq (**108,6** %), Ishtixon (**108,5** %), Samarqand (**108,2** %), Payariq (**108,1** %), Jomboy (**107,8** %) tumanlari va Samarqand shahrida (**107,9** %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyun)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **108,3 %** ni tashkil qildi.

2023-2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-iyun oylarida o'sish sur'ati **107,8 %** ni tashkil qildi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush **Samarqand shahrida 35,0 %** bilan **4 859,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, **Nurobod tumani 1,6 %** bilan **216,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	4 859,9
Samarqand	1 581,5
Urgut	1 362,1
Bulung'ur	891,6
Narpay	699,5
Kattaqo'rg'on sh.	565,4
Ishtixon	536,7
Kattaqo'rg'on	526,5
Jomboy	494,9
Pastdarg'om	465,1
Payariq	426,0
Toyloq	401,1
Oqdaryo	336,6
Qo'shrabot	273,0
Paxtachi	252,9
Nurobod	216,5

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlari (foizda) (2024-yil yanvar-iyun)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **11 839,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **13,9** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **85,2** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi **2 049,8** mlrd. so'mni 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **82,6** % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **14,8** % ulushiga to'g'ri keldi.



108,7

Toyloq t.

109,3

Bulung'ur t.

110,0

Oqdaryo t.

111,7

Samarqand t.

120,4

Jomboy t.

127,8

Samarqand sh.

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

104,9

Toyloq t.


111,3

Kattaqo'rg'on t.

128,5

Urgut t.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda), (2024-yil yanvar-iyun)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Narpay (99,5 %), Ishtixon (99,3 %), Jomboy (99,2 %), Oqdaryo (99,1 %) va Payariq (99,0 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 14,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (29,4 %) va Samarqand (31,0 %), Kattaqo'rg'on (6,0 %), Pastdarg'om (4,1 %) tumanlarida kuzatildi.

14,8 %

85,2 %

 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik


Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda
(2024-yil yanvar-iyun)

Samarqand viloyati

3 284,5

Samarqand sh.

8 266,5

Kattaqo'rg'on sh.

5 945,3

Oqdaryo

1 933,4

Bulung'ur

4 387,8

Jomboy

2 596,3

Ishtixon

1 935,4

Kattaqo'rg'on

1 784,3

Qo'shrabot

1 915,9

Narpay

3 064,0

Payariq

1 550,2

Pastdarg'om

1 207,8

Paxtachi

1 655,3

Samarqand

5 765,6

Nurobod

1 326,6

Urgut


2 422,8

Toyloq

1 804,0

2024-yilning yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 284,5** ming so'mni (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,5 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatgichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**8 266,5** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**5 945,3** ming so'm) va Samarqand tumani (**5 765,6** ming so'm), Bulung'ur (**4 387,8** ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunda dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-iyun), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	1 405,6	108,0	568,4	99,9	837,2	114,3
Samarqand sh.	124,8	123,4	97,0	121,7	27,8	129,8
Kattaqo'rg'on sh.	163,5	94,9	67,4	80,4	96,1	108,7
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	81,4	103,8	5,5	54,9	75,9	110,9
Bulung'ur	124,3	101,4	46,6	134,3	77,8	88,5
Jomboy	99,8	106,7	54,4	80,0	45,4	178,1
Ishtixon	105,5	105,1	59,2	127,4	46,3	85,9
Kattaqo'rg'on	109,2	123,6	57,9	172,7	51,3	93,5
Qo'shrabot	51,6	107,1	8,2	41,5	43,4	153,3
Narpay	59,3	97,6	34,1	133,5	25,1	71,6
Payariq	104,1	106,8	28,8	71,9	75,3	131,2
Pastdarg'om	49,5	103,0	4,1	102,8	45,4	103,0
Paxtachi	61,9	112,5	24,1	102,8	37,8	119,7
Samarqand	49,4	122,9	7,9	114,8	41,5	124,5
Nurobod	64,3	112,7	9,1	52,4	55,2	139,1
Urgut	82,2	106,9	42,7	89,0	39,5	136,6
Toyloq	74,8	122,2	21,4	78,1	53,4	157,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi **1 405,6** mlrd. so'mni, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **108,0 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **568,4** mlrd. so'mni (**99,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **837,2** mlrd. so'mni (**114,3 %**) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlari o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **568,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**227,9** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi (2024-yil yanvar-iyun)

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 227,9 mlrd. so'm  40,1 %	Non va non mahsulotlari 45,2 mlrd. so'm  7,9 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 71,1 mlrd. so'm  12,5 %
Tovuq go'shti 41,4 mlrd. so'm  7,3 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar) 63,4 mlrd. so'm  11,2 %	Tuxum 25,5 mlrd. so'm  4,5 %
Ziravorlar 26,8 mlrd. so'm  4,7 %	Sut va sut mahsulotlari 22,2 mlrd. so'm  3,9 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 14,4 mlrd. so'm  2,5 %
Tuzlamalar 20,3 mlrd. so'm  3,6 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 10,2 mlrd. so'm  1,8 %	

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **837,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **669,7** mlrd. so'm, qo'y va echkilar **124,4** mlrd. so'mni, otlar **38,6** mlrd. so'mni, parrandalar **4,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva
mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 374,2 mlrd. so'm  44,7 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 190,0 mlrd. so'm  22,7 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 105,5 mlrd. so'm  12,6 %
Qo'ylar 96,9 mlrd. so'm  11,6 %	Otlar 38,6 mlrd. so'm  4,6 %	Echkilar 27,5 mlrd. so'm  3,3 %
Kurka, o'rdak, g'oz 1,6 mlrd. so'm  0,2 %	Tovuqlar 2,9 mlrd. so'm  0,3 %	Quyionlar 0,054 mlrd. so'm  0,006 %
Qushlar 0,05 mlrd. so'm  0,006 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-iyun)

2024-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 875** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **9** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 866** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so‘m	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	610,5	102,3
Samarqand sh.	432,2	101,1
Kattaqo‘rg‘on sh.	12,5	104,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	3,8	106,4
Bulung‘ur	13,7	106,7
Jomboy	13,2	105,9
Ishtixon	3,8	105,7
Kattaqo‘rg‘on	7,0	105,7
Qo‘shrabot	6,1	106,4
Narpay	7,1	106,9
Payariq	5,2	104,0
Pastdarg‘om	40,6	105,5
Paxtachi	6,2	105,2
Samarqand	24,3	105,8
Nurobod	6,5	107,8
Urgut	12,4	103,3
Toyloq	15,9	104,2

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **610,5** mlrd. so‘mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **2,3 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **85,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot (2024-yil yanvar-iyun)

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	1 904,8	100,0
Samarqand sh.	1 553,1	81,5
Kattaqo'rg'on sh.	15,3	0,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	16,3	0,9
Bulung'ur	5,6	0,3
Jomboy	1,8	0,1
Ishtixon	8,4	0,4
Kattaqo'rg'on	7,6	0,4
Qo'shrabot	2,2	0,1
Narpay	7,5	0,4
Payariq	11,2	0,6
Pastdarg'om	5,2	0,3
Paxtachi	5,0	0,3
Samarqand	133,5	7,0
Nurobod	1,0	0,05
Urgut	3,0	0,2
Toyloq	128,1	6,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 553,1** mlrd. so'm), Samarqand (**133,5** mlrd. so'm) va Toyloq (**128,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi, (mlrd. so'm) (2024-yil yanvar-iyun)




2024-yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **1 904,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35,8 %** ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **379,6** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **2,1 m.**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **1 525,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **125,2 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda (2024-yil yanvar-iyun)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **9 905,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **22,7 %** ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

44,5 %

4 407,7 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

55,5 %

5 498,0 mlrd. so'm

**Mikrofirma va kichik
korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **5 498,0** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **102,1 %** ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **55,5 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES KORXONALARINING SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar-iyun)

2024-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 012** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **30** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 982** tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Nurobod (**231,6 m.**), Samarqand (**2,0 m.**), Toyloq (**182,7 %**), Samarqand sh. (**163,0 %**) va Pastdarg'om (**151,3 %**) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2023-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2023-yil yanvar – iyun oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	9 905,7	122,7	4 407,7	163,9	5 498,0	102,1
Samarqand sh.	6 699,4	128,9	3 589,1	163,0	3 110,3	103,9
Kattaqo'rg'on sh.	168,3	98,4	0,2	84,9	168,1	98,4
tumanlar:						
Oqdaryo	253,0	107,7	-	-	253,0	107,7
Bulung'ur	235,6	130,6	198,2	139,6	37,4	97,3
Jomboy	132,4	96,6	0,026	0,2	132,3	109,9
Ishtixon	65,8	101,2	-	-	65,8	101,2
Kattaqo'rg'on	191,1	100,5	-	-	191,1	100,5
Qo'shrabot	20,0	100,9	0,03	30,7	20,0	101,2
Narpay	78,7	91,1	0,187	57,0	78,5	91,2
Payariq	55,6	102,2	-	-	55,6	102,2
Pastdarg'om	401,5	114,3	136,8	151,3	264,7	101,5
Paxtachi	8,5	89,0	0,034	16,0	8,5	90,7
Samarqand	909,5	129,2	306,0	2,0 m.	603,5	109,2
Nurobod	58,9	134,1	18,8	231,6 m.	40,1	91,5
Urgut	268,1	93,8	-	-	268,1	93,8
Toyloq	359,3	104,4	158,3	182,7	201,0	78,0